



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taъsir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адиллов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi munosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvovyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish...	116
Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш yo‘llari.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

**O‘ZBEKISTON ELEKTROENERGETIKASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR VA “YASHIL” ENERGETIKANING O‘RNI**

**РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И «ЗЕЛЁНОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В
РАЗВИТИИ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА**

**THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND “GREEN” ENERGY IN THE
DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN’S ELECTRIC POWER INDUSTRY**

Tursunov Alisher Muhamadnazirovich,
(ТДТУ i.f.n., professor).

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston elektroenergetika tizimining hozirgi holati tahlili asosida uni rivojlantirishda innovatsiyalar, quyosh va shamol energetikasi, energiyani saqlash texnologiyalari hamda “aqlli” elektr tarmoqlarining energetika tizimi barqarorligi va ishonchliligini ta’minlashdagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: elektroenergetika, “yashil” energetika, innovatsion texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, energiyani saqlash, “aqlli” elektr tarmoqlari.

В статье на основе анализа текущего состояния электроэнергетической системы Узбекистана освещается роль инноваций, солнечной и ветровой энергетики, технологий хранения энергии, а также «умных» электрических сетей в обеспечении устойчивости и надежности энергетической системы и развитии отрасли.

Ключевые слова: электроэнергетика, «зелёная» энергетика, инновационные технологии, возобновляемые источники энергии, энергоэффективность, накопление энергии, «умные» электрические сети.

Based on the analysis of the current state of Uzbekistan's electric power system, the article highlights the role of innovations, solar and wind energy, energy storage technologies, and “smart” power grids in ensuring the stability and reliability of the energy system and developing the sector.

Keywords: electric power industry, green energy, innovative technologies, renewable energy sources, energy efficiency, energy storage, smart grids.

Hozirgi global energetik o‘zgarishlar sharoitida iqlim o‘zgarishi, an’anaviy energiya resurslarining cheklanganligi va energiyaga bo‘lgan talabning doimo o‘sib borishi “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda elektroenergetika sohasi muhim o‘rin tutib, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali energiya ishlab chiqarish va taqsimlash tizimlarining samaradorligi, ishonchliligi hamda ekologik barqarorligini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiyani saqlash texnologiyalari va “aqlli” elektr tarmoqlarini rivojlantirish O‘zbekiston elektroenergetikasini modernizatsiya qilish va “yashil” iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonning energetika sektori so‘nggi yillarda sezilarli o‘shish va transformatsiya jarayonini boshdan kechirdi. 2017–2024 yillarda elektr energiyasi ishlab chiqarish 38 foizga oshib, 81,5 mlrd kVt·soatga yetdi va xususiy sektorning ulushi 24 foizgacha oshirildi, shu bilan birga qayta tiklanuvchi energiya manbalari umumiy ishlab chiqarishda 16 foizni tashkil qildi [2]. Shuningdek, 2017–2025 yillarda energetika sohasiga 35 mlrd dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, 9 000 MVt yangi quvvatlar ishga tushirildi va elektr energiyasi ishlab chiqarish 60 mlrd kVt·soatdan 85 mlrd kVt·soatga ko‘tarildi [3]. Bu natijalar O‘zbekistonda energetik infratuzilmani modernizatsiya qilish, xususiy sektor faolligini oshirish va “yashil” energiya manbalarini rivojlantirish orqali barqaror va samarali energetika tizimini shakllantirish yo‘lidagi muhim yutuqlar sifatida baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda elektr energiyasiga bo‘lgan talab muttasil oshib bormoqda. 2019-yildan beri elektr energiyasiga bo‘lgan talab taklifdan 3 foizga ortib bormoqda. Shu bilan birga, elektr energiyasi ishlab chiqarish yalpi ichki mahsulot o‘shishiga nisbatan (o‘rtacha 5–6 foiz) pastroq bo‘lib, ya’ni o‘rtacha 2,5–2,7 foizni tashkil etmoqda. Mamlakatning energiya ishlab chiqarish quvvati elektr energiyasiga bo‘lgan o‘sib borayotgan talabni to‘liq qondira olmayapti. Elektr taqchilligi qo‘shni davlatlardan import hisobidan qoplanmoqda: Turkmanistondan 64 foiz, Tojikistondan 20,3 foiz, Qozog‘istondan 11,3 foiz va Qirg‘izistondan 4,4 foiz [4].

Biroq, O‘zbekiston energiya samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator muammolarga duch kelmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imi pasayganiga qaramay, mamlakat iqtisodiyoti hanuzgacha dunyodagi eng ko‘p energiya talab qiluvchi iqtisodiyotlardan biri bo‘lib qolmoqda. Mutaxassislar ma’lumotlariga ko‘ra, iqtisodiyotning energiya sig‘imi rivojlangan mamlakatlarnikidan 2–2,5 baravar yuqori [5].

Bu holatning vujulga kelishiga bir necha asosiy sabablar mavjud: energiya sig‘imi yuqori bo‘lgan an’anaviy texnologiyalar va eskirgan uskunalardan foydalanish; elektr va issiqlik ta’minoti tarmoqlarida eskirgan uzatish liniyalari va past samarali turbinalardan foydalanish; energiya tejamkor texnologiyalarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi; shuningdek, energiya iste’molini nazorat qilish va samaradorlikni oshirish tizimlarini to‘liq joriy etish zarurati.

Energiya samaradorligini oshirish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradi. Energiya tejamkor texnologiyalar yoqilg‘i sarfini qisqartiradi, chiqindilarni kamaytiradi va ekologik bosimni yumshatadi. Kogeneratsiya, yuqori samarali turbinalar va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali umumiy foydali ish koeffitsiyenti oshadi, bu esa energiya xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Shu nuqtai nazardan, elektr energetikasi tarmog‘ini yanada rivojlantirish, uning raqobatbardoshligi va barqarorligini ta’minlash mavjud muammolarni faqat an’anaviy usullar orqali hal etish bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiyani saqlash texnologiyalarini rivojlantirish hamda “aqlli” elektr tarmoqlarini joriy etish sohadagi tizimli kamchiliklarni bartaraf etishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi o‘n yilliklarda jahon miqyosida quyosh, shamol va gidroenergetik qurilmalar kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish jadal sur‘atlarda o‘shib bormoqda. Bu esa qazib olinadigan yoqilg‘i turlariga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish va uglerod chiqindilarini qisqartirishga xizmat qilmoqda. Biroq mazkur jarayon bir qator murakkab masalalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular qatoriga qayta tiklanuvchi energiya manbalarining uzluksiz emasligi, ushbu texnologiyalarni mavjud energetika tizimlariga integratsiya qilish muammolari hamda yangi infratuzilmaviy yechimlarni topish va amaliyotga tadbiq etish zarurati kiradi.

O‘zbekistonda elektr energetikasi sohasi faol modernizatsiya bosqichida bo‘lib, bunda innovatsion texnologiyalar markaziy o‘rinni egallaydi. Energetikadagi innovatsion texnologiyalarning asosiy yo‘nalishlaridan biri qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hisoblanadi. So‘nggi yillarda quyosh va shamol energetikasi xarajatlarining sezilarli darajada pasayishi ularni an’anaviy energiya manbalariga nisbatan iqtisodiy jihatdan raqobatbardosh qilmoqda. Xususan, hozirgi kunda issiqlik elektr stansiyalarida bir kilovatt-soat elektr energiyasining tannarxi 5–6 sentni tashkil etsa, quyosh va shamol elektr stansiyalarida ushbu ko‘rsatkich o‘rtacha 3 sentga tengdir [2].

“Yashil” energetikaning muhim tarkibiy qismi energiyani saqlash texnologiyalari hisoblanadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining asosiy muammolaridan biri ularning uzluksiz emasligidir: quyosh energiyasi faqat kunduzgi vaqt mavjud bo‘lsa, shamol energiyasi barqaror bo‘lmasligi mumkin. Ushbu cheklovlarini bartaraf etish maqsadida akkumulyatorli energiya saqlash texnologiyalari, gidroakkumulyator stansiyalari hamda vodorodli energiya saqlash kabi yangi energiya saqlash usullari jadal rivojlanmoqda. Energiya saqlash texnologiyalari yuqori ishlab chiqarish davrlarida ortiqcha energiyani jamlash va kam ishlab chiqarish davrlarida undan foydalanish orqali energiya ta’minotining barqarorligi va ishonchliligini ta’minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar faqat ishlab chiqarish jarayonlari bilan cheklanib qolmaydi. Energetika tizimlarining barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda intellektual yoki “aqlli” tarmoqlar ham katta ahamiyatga ega. Zamonaviy “aqlli” tarmoqlar axborot texnologiyalari va Internet ashyo (IoT) qurilmalarini birlashtirib, elektr energiyasi iste'molini real vaqt rejimida boshqarish va monitoring qilish imkonini beradi. Bu esa energiya yo'qotishlarini kamaytirish, tarmoqlar ish samaradorligini oshirish va infratuzilmaga tushadigan yuklamani pasaytirishga xizmat qiladi.

Bunday tarmoqlarning asosiy afzalligi shundaki, ular energiyaga bo'lgan talab va taklifdagi o'zgarishlarga moslasha oladi hamda o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini samarali integratsiya qilish imkonini beradi. “Aqlli” tarmoqlarni boshqarish tizimlari real vaqt ma'lumotlari va algoritmlar yordamida energiya oqimlarini avtomatik tarzda tartibga soladi, shuningdek, tarmoqlar ish faoliyatining ishonchliligini ta'minlaydi va energiya ta'minotiga bo'lgan tashqi ta'sirlarga chidamliligini oshiradi.

Mavjud energetika tizimlarini modernizatsiya qilish katta hajmdagi investitsiyalar va uzoq muddatli rejalashtirishni talab etadi. Yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalarini joriy etish, jarayonlarni avtomatlashtirish, transformator va taqsimlash stantsiyalarini yangilash tarmoqlarning moslashuvchanligi va ishonchliligini oshirish uchun juda muhim hisoblanadi. “Aqlli” texnologiyalarni joriy etish esa uy tomonlariga o'rnatilgan quyosh panellari va kichik shamol qurilmalari kabi mahalliy va taqsimlangan energiya manbalarini keng miqyosda tarmoqqa integratsiya qilish imkonini beradi.

“Yashil” energetikaga o'tish, erishilgan texnologik yutuqlarga qaramasdan, bir qator jiddiy qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lib, ularni hal etish kompleks yondashuvni talab qiladi. Eng muhim muammolardan biri quyosh va shamol energetikasi kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini mavjud energetika tizimlariga integratsiya qilishdir. Ularning ishlab chiqarishi ob-havo sharoitlariga bog'liq bo'lganligi sababli energiya ta'minotining barqarorligi va ishonchliligini ta'minlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Ushbu muammoni hal etish uchun akkumulyator va gidroakkumulyator stantsiyalari kabi energiya saqlash tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, talabni boshqarish texnologiyalarini joriy etish zarur. Bundan tashqari, transport va isitish sohasining keng ko'lamli elektrifikatsiyalanishi (elektromobillar va issiqlik nasoslariga o'tish) infratuzilmaga qo'shimcha talablarni yuzaga keltiradi.

Bu yo'nalishlarda mamlakatimiz bir qator ishlarni olib bormoqda. Toza energiyaga o'tish tabiiy gaz iste'molini qariyb 7 milliard kub metrga qisqartirish hamda atmosferaga 11 million tonna zararli moddalar chiqarilishining oldini olish imkonini beradi. Shuningdek, umumiy quvvati 1 245 MVt bo'lgan 10 ta energiya saqlash tizimi ishga tushirilishi e'lon qilindi. Ushbu tizimlar pik yuklamalar vaqtida qo'shimcha 1,5 milliard kVt-soat elektr energiyasi yetkazib berilishini ta'minlaydi. Energetika tizimining ishonchliligini mustahkamlash maqsadida 11 ta yirik podstantsiya hamda 420 kilometr yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari foydalanishga topshirildi. Davlat rahbari ta'kidlaganidek, mazkur obyektlar butun energetika tizimining barqaror va uzluksiz ishlashiga xizmat qiladi [3].

“Yashil” energetikani rag'batlantirishga qaratilgan aniq va barqaror qonunchilik bazasi innovatsiyalarning to'siqsiz rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, energetika sohasining istiqbollari juda umidli. 2030 yilga qadar umumiy generatsiyada “yashil” energiya ulushini 50 foizdan ortiqqa yetkazish rejalashtirilgan. Xususan, umumiy quvvati 164 MVt bo'lgan 3 mingta mikro GES, shuningdek, 750 MVt quvvatli kichik quyosh va shamol elektr stantsiyalarini ishga tushirish ko'zda tutilgan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalar hajmining ortishi, energiya saqlash texnologiyalari va “aqlli” tarmoqlarni rivojlantirish barqaror va samarali energetika tizimlarini yaratish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va texnologik bilimlar almashinuvini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalarni oshirish, “yashil” energetikani rag'batlantiruvchi qonunchilikni mustahkamlash va infratuzilmani modernizatsiya qilish 2030 yilga qadar energiya tizimini barqaror, samarali va ekologik toza shakllantirishga imkon yaratadi. Shu tarzda, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va tizimli yondashuvlar qo'llanilishi

O‘zbekiston energetika sohasining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Shunday qilib, hozirgi global energetik o‘zgarishlar sharoitida O‘zbekiston elektr energetikasi tizimini modernizatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish faqat an’anaviy usullarga tayanib amalga oshirilmaydi. Buning uchun innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiyani saqlash tizimlarini tatbiq etish hamda “aqlli” elektr tarmoqlarini kengaytirish zarur.

So‘nggi yillarda quyosh, shamol va gidroenergetik qurilmalardan foydalanish sezilarli darajada oshib, qazib olinadigan yoqilg‘ilarga bo‘lgan qaramlikni kamaytirishga va uglerod chiqindilarini qisqartirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, energiya saqlash texnologiyalari va “aqlli” tarmoqlar energiya ta’minotining barqarorligini oshirib, ortiqcha energiyani jamlash, talabni boshqarish va mahalliy energiya manbalarini tizimli ravishda integratsiya qilish imkonini beradi.

Ushbu yondashuv O‘zbekiston energetika tizimining samaradorligini oshirish, xususiy sektor faolligini kuchaytirish va “yashil” iqtisodiy rivojlanishga erishish yo‘lida muhim omil hisoblanadi. 2030 yilga kelib umumiy generatsiyada “yashil” energiya ulushini sezilarli darajada oshirish rejalashtirilgan, bu esa mamlakatning raqobatbardosh va ekologik barqaror energetika tizimini shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va tizimli yondashuvlar O‘zbekiston energetika sohasining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Allaev K.R. Zamonaviy energetika va uning rivojlanish istiqbollari. Akademik A.U. umumiy tahriri ostida. – T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2021. 952 b.
2. <https://president.uz/ru/lists/view/7842>
3. https://uza.uz/ru/posts/na-stranicax-mirovoy-pressy_792038
4. <https://strategy.uz/index.php?news=1644&lang=ru>
5. Energy of Uzbekistan: transition to market relations and increasing generation — UzDaily.uz